


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2018 yil yanvar-oktabr)

2018 yil yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko`ra, respublikada tashqi savdo aylanmasi 25 768,3 mln. AQSh dollarini tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 15,9 %ga o`sdi. Shu jumladan, eksport hajmi 10 258,0 mln. AQSh dollarga (4,1 %ga kamaygan) va import hajmi 15 510,3 mln. AQSh dollariga (o`shir sur`ati 34,4 %) yetdi. Tashqi savdo saldosi minus 5 252,3 mln. AQSh dollarini tashkil qildi.

O`zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasi (mln. AQSh dollari)




So`nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilinishi, eksportni qo`llab-quvvatlash, import o`rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o`zgarishga erishildi. Jumladan, xom-ashyo eksportidan, qo`shilgan

qiymati yuqori hamda sarmoya talab tovarlar eksportiga yo`naltirilgan tashqi savdo amalga oshirilmoqda.

Misol tariqasida, paxta tolasining umumiy eksportdagi ulushi bo`yicha o`zgarish tendentsiyalarini ko`rishimiz mumkin. 2015 yil yanvar-oktabr oylarida paxta tolasini eksporti umumiy eksportning 4,1%ini tashkil etgan bo`lib, jami eksport hajmi 296,1 ming tonnaga yetgan bo`lsa, 2016 yilning yanvar-oktabr oylarida jami 295,5 ming tonna paxta tolasini eksport qilingan. 2017 yil yanvar-oktabr oylari natijalariga ko`ra, esa paxta tolasining umumiy eksportdagi ulushi 3,1 %gacha kamayib, eksport hajmi 204,8 ming tonnani tashkil qildi.

Mazkur o`zgarish tendensiyasini esa paxta xom-ashyosini yuqori qo`shilgan qiymatga ega bo`lgan to`qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va eksportga yo`naltirilishi bilan izohlashimiz mumkin bo`ladi.


Eksportda paxta tolasini ulushining dinamikasi, % (yanvar-oktabr oylarida)



Joriy yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga nazar tashlasak, paxta tolasining umumiy eksportdagi ulushi avvalgi yillarning shu davriga nisbatan sezilarli darajada kamayganini ko`rishimiz mumkin. Ushbu davrda jami 101,5 ming tonna paxta tolasini eksport qilingan.

Shu bilan birga ta'kidlab o'tish kerakki, 2018 yilning oktabr oyida eksport qilingan tovar va xizmatlar, sentabr oyiga nisbatan 102,9 mln. AQSh dollarga kamroq eksport qilindi va 788,4 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Tovlar va xizmatlar importi hajmi esa 1837,0 mln. AQSh dollarini tashkil qilgan bo'lib, bu esa sentabr oyiga nisbatan 183,9 mln. AQSh dollariga ko'proqdir.

2018 yilda tovar va xizmatlarning oylik eksport-import ko'rsatkichlari dinamikasi
(mln. AQSh dollar)



2018 yil yanvar-oktabr oylarida respublika tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar ketma-ketligi joriy yilning yanvar oyidan buyon deyarli o'zgarishsiz qolmoqda.

Respublika tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar

(mln. AQSh dollar)

Davlat nomi	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasi	
				ulushi, %	o'zgarish sur'ati, %
Xitoy	5 028,4	2 202,1	2 826,4	19,5	128,8
Rossiya	4 569,3	1 640,8	2 928,5	17,7	116,5
Qozog'iston	2 365,2	1 143,8	1 221,4	9,2	141,1
Turkiya	1 747,2	714,5	1 032,7	6,8	141,5

(mln. AQSh dollari)


Davlat nomi	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasi	
				ulushi, %	o'zgarish sur'ati, %
Koreya Respublikasi	1 537,9	78,7	1 459,2	6,0	139,6
Germaniya	579,0	35,3	543,7	2,2	111,9
Afg'oniston	514,2	512,6	1,6	2,0	107,9
Yaponiya	425,8	11,7	414,2	1,7	3,1
Latviya	368,8	33,4	335,3	1,4	157,0
Ukraina	363,6	83,5	280,1	1,4	165,7
AQSh	345,7	24,9	320,8	1,3	190,5
Belarus	330,2	31,7	298,5	1,3	2,5 b.
Qirg'iziston	325,8	215,2	110,6	1,3	151,6
Tojikiston	316,3	184,0	132,4	1,2	160,1
Eron	254,3	146,5	107,7	1,0	106,0
Frantsiya	246,2	150,2	96,0	1,0	117,1
Italiya	233,5	19,5	214,0	0,9	164,7
Hindiston	229,8	19,3	210,5	0,9	79,7
Litva	229,2	8,4	220,7	0,9	110,8
Turkmaniston	200,2	37,0	163,3	0,8	139,9

Respublikamizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2018 yil yanvar-oktabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 38,3 %ni tashkil etdi hamda tashqi savdo aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 132,4% oshdi. Boshqa xorijiy davlatlarning respublika tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2017 yilning yanvar-oktabr oylarida 66,5 %ni tashkil qilgan bo'lsa, joriy yilning ushbu davrida esa tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 61,7 %ga tushdi.

EKSPORT

2018 yil yanvar-oktabr oylarida eksport hajmi 10 258,0 mln. AQSh dollarga (4,1 % ga kamaygan) teng bo`ldi. Eksport tarkibida tovarlar 75,4 % ulushga ega, bular asosan energiya manbaalari va neft mahsulotlari (19,9 %), oziq-ovqat mahsulotlari (9,0 %), shuningdek, kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (7,3 %) guruhlariga hissasiga to`g`ri kelmoqda.

Tovar va xizmatlar eksporti tarkibi (mln.AQSh dollari)



Eksport qilingan tovar va xizmatlar tarkibining tahliliga nazar tashlasak, joriy yilning yanvar-oktabr oylarida o`tgan yilning mos davriga nisbatan, keskin o`zgarishlar mavjud emasligini ko`rishimiz mumkin. Lekin ayrim turdagi tovar va xizmatlar eksportining umumiy eksportdagi ulushi joriy yilning yanvar-oktabr oylarida o`tgan yilning mos davriga nisbatan kamayib borayotganligini kuzatishimiz mumkin.


Xususan, mazkur holat paxta tolasi, mashina va asbob-uskunalar hamda xizmatlar sohasida namoyon bo`lmoqda.

Eksport tarkibi

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh doll.	o`tgan yilning shu davriga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o`tgan yilning shu davriga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o`tgan yilning shu davriga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %
Eksport	10258,0	95,9	100,0	4047,9	119,5	100,0	6210,1	85,0	100,0
Paxta tolasi	194,1	55,5	1,9	3,1	33,7	0,1	191,0	56,0	3,1
Oziq-ovqat mahsulotlari	921,6	133,9	9,0	621,5	134,6	15,3	300,1	132,4	4,8
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	743,2	104,4	7,3	306,0	109,2	7,6	437,2	101,3	7,1
Energiya manbaalari va neft mahsulotlari	2045,4	151,7	19,9	915,0	131,6	22,6	1130,4	173,3	18,2
Qora va rangli metallar	783,3	108,6	7,6	117,1	104,5	2,9	666,2	109,3	10,7
Mashina va asbob - uskunalar	162,3	58,2	1,6	119,2	64,7	2,9	43,1	45,4	0,7
Xizmatlar	2522,7	125,3	24,6	1262,2	128,3	31,2	1260,5	122,4	20,3
Qimmatbaho metallar	1 591,3	47,3	15,5	-	-	-	-	-	-
To`qimachilik mahsulotlari	1068,3	115,2	10,4	587,1	106,5	14,5	481,1	128,0	7,7
Boshqalar	225,8	76,6	2,2	116,6	41,0	2,9	109,2	9,3	1,8

Eksport qilinyotgan tovar va xizmatlarning oylar kesimidagi o'sish sur'atlari bo'yicha quyida keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, joriy yilning yanvar-oktabr oylari davomida eng yuqori o'sish sur'atlari yanvar va aprel oylarida kuzatilgan.

Tovar va xizmatlar eksportining o'sish sur'atlari dinamikasi
(o'tgan oyga nisbatan,%)



Shuningdek, tovar va xizmatlar eksporti o'sish sur'atlarining tahliliga asosan, 2018 yilning oktabr oyida eksport qilingan tovar va xizmatlar sentabr oyiga nisbatan 11,5 %ga kamaygan.

2018 yilning yanvar-oktabr oylarida eksport qilingan ayrim turdagi mahsulotlar tarkibi


	mln. AQSh doll.	o'tgan yilning shu davriga nisbatan, %		mln. AQSh doll.	o'tgan yilning shu davriga nisbatan, %
Oziq-ovqat mahsulotlari					
meva mahsulotlari	323,7	152,5	alkogolli va alkogolsiz ichimliklar	9,8	72,1
sabzavot mahsulotlari	252,1	153,5	qayta ishlangan meva-sabzavot mahsulotlari	24,1	98,4
bug'doy	20,5	48,8	qalampir	7,4	129,8

Kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar					
plastmassalar va ulardan tayyorlangan buyumlar	381,2	104,2	farmasevtika mahsulotlari	10,0	2,9 b.
ammiak	1,4	19,7	karbonatlar; peroksokarbonatlar	11,7	89,3
o`g`itlar	112,5	85,7	kimyoviy shtapelli tola	6,4	110,3
Energiya manbaalari va neft mahsulotlari					
tabiiy gaz	1846,4	157,5	motor moylari	11,1	112,1
tarkibida oltingugurt bo`lgan yoqilg`ilar	6,3	112,5	qayta ishlangan boshqa neft mahsulotlari	31,8	2,4 b.
elektroenergiya	137,7	123,5			
Qora va rangli metallar					
mis va mis buyumlari	427,4	103,5	rangli metallar va undan tayyorlangan buyumlar (misdan tashqari)	185,7	99,9
temir burchaklar, prutkalar va maxsus profillar	157,6	142,4	qora metallardan tayyorlangan bosma va dag`al buyumlar	1,3	33,3
Mashina va asbob-uskunalar					
simlar va kabellar	16,4	82,4	yengil avtomobil	27,9	27,4
transformatorlar va akkumulyatorlar	10,7	56,9	avtobuslar va mikroavtobuslar	5,2	173,3
elektr zanjirlarini almashtirish yoki himoya qilish jihozlari	8,6	50,9	yuk vagonlari (sisternalarni qo`shgan holda)	9,9	2,8 b.
avtomobillar uchun ehtiyot qismlar va jihozlar	3,1	103,3	yuk avtomobillari va maxsus avtomobillar	5,9	109,3
monitorlar va proektorlar	8,5	139,3	tirkama va yarim tirkamalar	1,2	100,0
Boshqalar					
to`qimachilik mahsulotlari	1068,3	115,2	oyoq kiyim, getra va ularning qismlari	10,7	102,9
charm xom-ashyosi, charm va jun, ulardan tayyorlangan buyumlar	67,0	80,8	shisha va shisha buyumlar	8,4	87,5
qog`oz, karton va matbaa buyumlari	14,9	3,2 b.	daraxtlar va boshqa o`simliklar	1,8	112,5
sopol buyumlar	11,7	91,4	velosipedlar, tepkili avtomobillar; qo`g`irchoqlar uchun kolyaskalar; qo`g`irchoqlar	1,7	106,3

Xizmatlar eksporti hajmi 2522,7 mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 24,6 %ini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 25,3 %ga o'sganligi kuzatildi.


Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari, turizm xizmatlari, telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari hamda moliyaviy xizmatlar hissasiga to'g'ri keladi.

Xizmatlar eksporti tarkibi, (%)




Tovar va xizmatlar eksporti dinamikasi tahliliga ko'ra, 2018 yilning oktabr oyi mobaynida eksport qilingan tovarlar hajmi, sentabr oyiga nisbatan 92,3 mln. AQSh dollariga kam eksport qilindi va 523,0 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar eksporti esa 265,4 mln. AQSh dollarga yetgan.

2018 yilda tovarlar va xizmatlar eksporti dinamikasi (oylar kesimida, mln. AQSh dollari)



Respublika eksportida asosiy hamkor davlatlar (mln. AQSh dollari)



EKSPORT

Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Xitoy Xalq Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu esa umumiy eksport hajmining 37,5 % ini tashkil qiladi. Xitoy Xalq Respublikasi va Rossiya Federatsiyasiga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan energiya manbaalari va neft mahsulotlari, kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar hamda oziq-ovqat mahsulotlari guruhlaridan iborat ekanligini ko'rishimiz mumkin.

**Respublikaning ayrim davlatlar
bilan eksport tarkibi**
(yanvar-oktabr oylari)

(mln. AQSh doll.)

	Rossiya Federatsiyasi		Xitoy Xalq Respublikasi		Koreya Respublikasi		Qozog'iston	
	2017 y.	2018 y.	2017 y.	2018 y.	2017 y.	2018 y.	2017 y.	2018 y.
Jami eksport	1 710,6	1 640,8	1 639,7	2 202,1	91,6	78,7	863,5	1 143,8
paxta tolasi	7,1	2,7	60,2	55,6	-	-	-	-
oziq-ovqat mahsulotlari	120,5	155,7	31,5	48,7	1,7	3,4	281,9	361,0
kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	106,6	137,6	143,3	122,4	2,3	5,5	79,1	82,7
energiya manbaalari va neft mahsulotlari	402,5	399,6	485,0	968,2	0,0	0,0	286,7	467,0
qora va rangli metallar	41,6	39,5	109,6	93,3	0,2	3,2	40,5	34,4
mashina va asbob-uskunalar	85,2	48,3	12,5	4,0	3,3	0,6	39,8	36,3
xizmatlar	480,0	372,9	547,7	584,9	55,3	49,8	60,8	84,9
boshqalar	467,1	484,5	249,8	324,9	28,8	16,2	74,9	77,5

Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

2018 yilning yanvar-oktabr oylarida jami 1008,6 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot mahsulotlari 732,5 mln. AQSh dollariga eksport qilindi (o'sish sur'ati - 43,3 %). Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2018 yilning yanvar-oktabr oylarida 561,6 ming tonnadan ko'proq sabzavotlar 252,1 mln. AQSh dollariga yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 282,1 ming tonnaga ko'p miqdorda eksport qilingan.

Shuningdek, 257,8 ming tonna meva va rezavorlar 323,7 mln. AQSh dollariga eksport qilingan bo'lib, eksport hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 27,3 ming tonnaga ko'pdir.

Meva-sabzavot mahsulotlarining tarkibi



Shuni aytib o'tish joizki, mamlakatimizda eksport salohiyatini kengaytirish, yangi bozorlarni o'zlashtirish natijasida meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalarni eksport qilish hajmi oshib bormoqda. Jumladan, 2018 yilning yanvar-oktabr oylarida meva-rezavorlar hamda sabzavotlar eksport hajmi 575,8 mln.AQSh dollariga yetdi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 52,9 %ga o'sgan).

Respublikamizda yetishtirilgan meva va sabzavot mahsulotlarining asosiy bozorlari eksport geografiyasi

Davlat nomi	2017 yil yanvar-oktabr			2018 yil yanvar-oktabr		
	ming tonna	mln. AQSh doll.	ulushi, %	ming tonna	mln. AQSh doll.	ulushi, %
Qozog`iston	391,8	264,0	51,6	502,1	343,1	46,8
Rossiya	139,7	95,8	18,7	200,5	139,3	19,0
Qirg`iziston	45,7	26,5	5,2	76,8	69,0	9,4
Afg`oniston	34,0	28,5	5,6	58,7	43,3	5,9
Xitoy	14,0	10,5	2,1	42,1	30,0	4,1
Turkiya	21,5	25,7	5,0	17,8	19,0	2,6
Pokiston	1,9	1,3	0,3	21,6	16,7	2,3
Vetnam	2,6	1,7	0,3	22,1	14,2	1,9
Eron	8,1	7,1	1,4	10,0	7,9	1,1
Ukraina	4,7	3,3	0,6	9,2	6,3	0,9
Belarus	3,1	3,0	0,6	5,8	5,7	0,8
BAA	6,0	5,1	1,0	6,1	4,9	0,7
Iroq	6,9	9,2	1,8	4,2	4,5	0,6
Latviya	3,7	2,6	0,5	4,3	3,6	0,5
Ozarbayjon	2,7	2,9	0,6	2,9	3,1	0,4
Turkmaniston	6,9	4,9	1,0	4,8	2,9	0,4
Boshqalar	23,0	19,2	3,8	19,6	19,0	2,6

To'qimachilik mahsulotlari eksporti

2018 yilning o'tgan davri mobaynida 1068,3 mln. AQSh dollari miqdorida to'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmi amalga oshirildi. Bu ko'rsatkich 2017 yilning mos davriga nisbatan 15,2 %ga o'sib, umumiy eksport hajmining 10,4 %ini tashkil qildi. Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibidan paxtadan yigirilgan ip (56,7%), tayyor to'qima matolar va tikuvchilik kiyimlari (22,6 %) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan 332 turdan ortiq mahsulotlar dunyoning 56 ta davlatiga eksport qilindi.

To'qimachilik mahsulotlari eksporti tarkibi

(2018 yil yanvar-oktabr holatiga)




Mustaqillikka erishgan ilk yillarda respublikamiz yengil sanoatida faqatgina paxta xom ashyosi eksport qilingan bo'lsa, hozirda esa tayyor to'qimachilik va yengil sanoat mahsulotlari yetkazib beruvchi eksportyor sifatida dunyo iqtisodiyotida o'z o'rnini egallab kelmoqda.

IMPORT

Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida import hajmi 15 510,3 mln. AQSh dollariga (o'sish sur'ati 34,4 %) teng bo'ldi. Import tarkibida eng katta ulush mashina va asbob uskunalar (41,1%), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (13,3 %) hamda oziq-ovqat mahsulotlari (8,4 %) guruhlari hisobiga to'g'ri keldi.

Tovar va xizmatlar importi tarkibi (mln.AQSh dollari)




Import tarkibi

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh doll.	o'tgan yilning shu davriga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilning shu davriga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilning shu davriga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %
Import	15510,3	134,4	100,0	5812,7	143,1	100,0	9697,6	129,7	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari	1300,4	120,5	8,4	951,8	179,9	16,4	348,6	63,3	3,6
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	2066,4	112,4	13,3	385,6	115,7	6,6	1680,8	111,7	17,3
Energiya manbaalari va neft mahsulotlari	709,0	122,5	4,6	678,5	122,1	11,7	30,5	132,6	0,3
Qora va rangli metallar	1494,5	137,2	9,6	1022,3	144,7	17,6	472,2	123,5	4,9
Mashina va asbob-uskunalar	6378,1	154,3	41,1	897,6	174,7	15,4	5480,5	151,5	56,5
Xizmatlar	1855,7	118,9	12,0	818,1	114,0	14,1	1037,6	123,0	10,7
Boshqalar	1706,2	135,5	11,0	1058,8	150,3	18,2	647,4	116,7	6,7

Import qilingan tovar va xizmatlarning oylar kesimidagi o'sish sur'atlari bo'yicha quyida keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, joriy yilning yanvar-oktabr oylari davomida eng yuqori o'sish sur'atlari fevral, iyul, avgust, oktabr oylarida kuzatilgan.

Tovarlar va xizmatlar importining o`shish sur`atlari dinamikasi
(o`tgan oyga nisbatan, %)



Shuningdek, tovar va xizmatlar importi o`shish sur`atlarining tahliliga asosan, 2018 yilning oktabr oyida import qilingan tovar va xizmatlar sentabr oyiga nisbatan 11,1 %ga o`sgan.

2018 yilning yanvar-oktabr oylarida import qilingan ayrim turdagi mahsulotlar tarkibi

	mln. AQSh doll.	o`tgan yilning shu davriga nisbatan, %		mln. AQSh doll.	o`tgan yilning shu davriga nisbatan, %
Oziq-ovqat mahsulotlari					
shakar	288,3	x	hayvon yoki o`simlik yog`-moylari	40,7	114,6
bug`doy	214,1	150,9	qandolat mahsulotlari	37,2	115,5
un	92,6	115,5	pista moyi	15,8	21,0
tayyor hayvon yemi	102,7	146,3	margarin	23,0	88,8

choy	43,8	99,5	sitrus mevalar	17,9	120,9
kartoshka	37,9	1,5 b.	go`sht va yarim tayyor oziq-ovqat mahsulotlari	13,6	158,1

Kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar

farmasevtika mahsulotlari	705,5	100,8	o`simliklarni o`stirish regulyatorlari	44,0	129,8
plastmassa va plastmassa buyumlar	459,8	119,4	kimyoviy zarralar	50,9	116,2
kauchuk va rezina mahsulotlari	180,9	139,9	kimyoviy shtapelli tola	48,3	104,1
organik kimyo birikmalari mahsuloti	109,2	108,5	aralashmalar va erituvchilar	42,3	127,4
parfyumeriya-kosmetika va yuvish vositalari	118,5	111,7	kaustik soda	28,7	127,6
bo`yoq ekstraktlari	103,6	106,9	kimyoviy va mineral o`g`itlar	12,7	2,3 b.

Energiya manbaalari va neft mahsulotlari

neftni qayta ishlash mahsulotlari	407,8	97,9	aglomerlanmagan lignit yoki jigarrang ko`mir	18,0	134,2
neft xom-ashyosi	204,4	2,2 b.	elektroenergiya	45,8	2,0 b.

Qora va rangli metallar

qora metall va undan tayyorlangan buyumlar	1330,0	137,0	rangli metall va undan tayyorlangan buyumlar	164,5	139,2
--	--------	-------	--	-------	-------

Mashina va asbob-uskunalar


avtomobil uchun ehtiyot qismlar va buyumlar	695,9	115,5	ekskavatorlar va buldozerlar	253,0	2,8 b.
to`qimachilik tolasini qayta ishlash mashinalari	445,6	2,2 b.	kir yuvish va idish yuvish mashinalari, quritgichlar, sentrifugalalar	257,5	126,5
yuk avtomobillari va maxsus avtomobillar	316,4	2,7 b.	yengil avtomobillar	195,5	167,0

konditsionerlar, sovutkichlar, muzlatkichlar va isitgichli uskunalar	346,7	147,6	shinalar va pokrishkalar	162,9	154,4
qishloq xo'jaligi mashinalari va boshqa uskunalari	253,0	1,9 b.	tibbiy asbob-uskunalar	144,3	87,3
Boshqalar					
yog'och va yog'och buyumlar	516,4	133,9	boshqa tirik o'simliklar	34,4	131,8
qog'oz, karton va chop etilgan buyumlar	179,0	105,6	asbest	37,5	143,1
sement	144,3	7,6 b.	qimmatbaho bo'lmagan metallardan ishlangan oshxona asbob-anjomlari	27,6	119,0
rangli metall konsentratlari va rudalari	87,5	101,5	o'rindiqli mebellar	23,2	104,5
tosh, gips va keramik buyumlar	74,1	102,2	o'yinchoqlar, o'yinlar va sport anjomlari	20,2	91,4
qurilish majmualari konstruksiyasi	128,3	3,0 b.	yirik shohli mollar	37,1	157,9
shisha va shishadan tayyorlangan buyumlar	57,1	128,0	tirik parrandalar	7,6	102,7

Qurilish materiallari importi


2018 yilning yanvar-oktabr oylari mobaynida 524,2 mln. AQSh dollari miqdorida qurilish materiallari importi hajmi amalga oshirildi. Bu ko'rsatkich 2017 yilning mos davriga nisbatan 49,3 %ga o'sib, umumiy import hajmining 3,4 %ini tashkil qildi. Import qilingan qurilish materiallari tarkibidan sement (27,5 %), yog'och va yog'och mahsulotlari (16,4 %), gips, sement, asbest, toshdan ishlangan buyumlar va sopol buyumlar (10,4 %) hamda oyna (9,0 %) asosiy ulushni egallagan.

Qurilish materiallari importi tarkibi (2018 yil yanvar-oktabr holatiga)




Yuqoridagi infografikadan ko`rinib turibdiki, 2018 yilning yanvar-oktabr oylarida qurilish materiallari import hajmi 2017 yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada oshgan. Qurilish materiallari importi hajmining o`shishiga yurtimizda olib borilayotgan bunyodkorlik, xususan, keng ko`lamdagi qurilish-rekonstruktsiya ishlarini amalga oshirilishi sabab bo`lmoqda. Shu o`rinda ta`kidlash lozimki, davlatimiz tomonidan qurilish mahsulotlari importi o`rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda ichki bozorni sifatli va arzon qurilish materiallari bilan to`yintirish bo`yicha bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

Xizmatlar importi tarkibi, (%)




Xizmatlar importi hajmi 1855,7 mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining 12,0 %ini tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 18,9 %ga o'sdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi turizm xizmatlari, transport xizmatlari, qurilish xizmatlari va telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlaridan iborat bo'ldi.

2018 yilda tovarlar va xizmatlar importi dinamikasi (oylar kesimida, mln. AQSh dollari)



Shu bilan birga ta'kidlab o'tish kerakki, 2018 yilning o'tgan davri mobaynida respublikaga import qilingan tovar va xizmatlar hajmi oktabr oyida, sentabr oyiga nisbatan 175,8 mln. AQSh dollarga oshgan holda, 1837,0 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

Respublika importida asosiy hamkor davlatlar (mln. AQSh dollari)



2018 yilning yanvar-oktabr oylarida respublikaga 146 dan ortiq xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan.

Shulardan 5 ta eng yirik bo'lgan Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Koreya Respublikasi, Qozog'iston va Turkiya hamkor davlatlaridan jami import hajmi 9 468,2 mln. AQSh dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 61,0 %ini tashkil qiladi

Yuqorida qayd etib o'tilganidek, import tarkibida asosiy ulushni tashkil qilgan mashina va asbob-uskunalar hamda kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar asosan qaysi davlatlardan respublikamizga olib kirilayotganini quyidagi sxemalardan ko'rish mumkin.

Mashina va usbob-uskunalar import qilingan asosiy hamkor davlatlar

DAVLAT NOMI	XITOIY	KOREYA RESPUBLIKASI	TURKIYA	ROSSIYA	GERMANIYA
MLN. AQSH DOLL.	1715,9	1059,5	548,0	538,8	406,1
O'TGAN YILNING SHU DAVRIGA NISBATAN, %	132,9	140,0	2,3 b.	153,1	124,8
ULUSHI, %	26,9	16,6	8,6	8,4	6,4

Kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar import qilingan asosiy hamkor davlatlar

DAVLAT NOMI	XITOIY	ROSSIYA	TURKIYA	KOREYA RESPUBLIKASI	HINDISTON
MLN. AQSH DOLL.	510,7	290,3	166,0	149,8	118,7
O'TGAN YILNING SHU DAVRIGA NISBATAN, %	111,9	120,0	128,6	108,7	68,2
ULUSHI, %	24,7	14,0	8,0	7,2	5,7

Yurtimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida mamlakatimizning eksport salohiyati oshib bormoqda.

Shuningdek, hukumatimiz tomonidan bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o`rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.